

KITOBXONLIK

Diyorova Dilafruz

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishining I - bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotida kitobxonlik madaniyatining o'rni, yoshlar ma'naviy kamolotini shakllantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy davrda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish masalalari tahlil qilinadi. Kitob mutolaasini targ'ib qilishga xizmat qilayotgan zamonaviy loyihalar, xususan, Mutolaa ilovasining faoliyati yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarida kitob, ilm va ma'naviyat haqida bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy yosh kitobxonlar, xususan, yoshlar yetakchisi sifatida tanilgan Alisher Sa'dullayev faoliyati ham ko'rib chiqilib, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirishdagi tashabbuslari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kitobxonlik, mutolaa madaniyati, yoshlar ma'naviyati, ta'lim, ilm, ma'rifat, zamonaviy texnologiyalar, mutolaa ilovasi, yosh kitobxonlar, ma'naviy kamolot.*

Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, inson tafakkurining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Tafakkur esa bilim orqali shakllanadi. Bilimning eng muhim manbalaridan biri esa kitobdir. Kitob insoniyat tarixida eng qadimiy va ishonchli bilim manbasi sifatida e'tirof etilgan. Shuning uchun ham dunyo xalqlari tarixida kitob va kitobxonlik madaniyati har doim yuksak qadrlangan. O'zbek xalqining ma'naviy merosida ham kitobxonlik alohida o'rin tutadi. Sharq allomalari ilmni eng ulug' ne'mat sifatida e'tirof etganlar. Ulug' mutafakkirlar inson kamolotining eng muhim omili sifatida ilm va kitob mutolaasini ko'rsatganlar. Bugungi kunda ham kitobxonlik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z asarlarida yoshlarni ilm olishga, kitob o'qishga chaqirgan. Uning fikricha, "Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan jamiyatgina barqaror rivojlanadi"³⁶. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham kitobxonlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidlab kelmoqda. Bugungi kunda yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri sifatida Mutolaa ilovasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ilova orqali minglab kitoblarni elektron shaklda o'qish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirishda zamonaviy yosh liderlar ham faol ishtirok

³⁶ I. Karimov, "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch." Toshkent, 2008-yil.

etmoqda. Mutolaa ilovasining asoschilaridan biri, Alisher Saydullayev yoshlar orasida kitob mutolaasini keng targ'ib qilayotgan faol shaxslardan biridir. Kitobxonlik inson tafakkurini rivojlantiruvchi eng muhim omillardan biridir. Kitob o'qish orqali inson dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlash doirasini boyitadi va ma'naviy jihatdan yuksaladi. Shuning uchun ham kitob mutolaasi inson kamolotining muhim sharti hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, buyuk allomalar ilmni eng oliy qadriyat deb bilganlar. Sharq mutafakkirlari kitobni bilim manbai sifatida ulug'laganlar. Ularning asarlarida ilm olishga da'vat etuvchi fikrlar keng uchraydi. Bugungi kunda kitobxonlik masalasiga davlat miqyosida katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining mashhur asarlarida yoshlarni ilmiy bo'lishga chaqirgan. Masalan, uning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida quyidagi fikrlar keltirilgan: insonning ma'naviy kamoloti jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Bu esa, avvalo, kitob mutolaasi orqali shakllanadi.

Darhaqiqat, kitob insonni fikrlashga, tahlil qilishga, hayotga ongli qarashga o'rgatadi. Kitob o'qigan inson hayotiy tajribaga ega bo'ladi, chunki kitoblar orqali u turli davrlar, turli xalqlar va turli madaniyatlar bilan tanishadi. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham yoshlar ma'naviyati masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Shuni aytib o'tish joizki, hech qaysi bir davlatda bizning yurtimizdek, kitob o'qigan yoshlarga turli xil spovg'alar va eng so'nggi rusumdagi avtomobillarni taqdim qishmaydi. Yurtboshimiz kitobxonlikni hamma narsadan ustun qo'yganlari uchun biz yoshlarni rag'batlantirish maqsadida katta-katta sovrinlar qo'ymoqda. Kitobxonlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanini ta'kidlaydi. Prezidentning fikricha, kitob o'qimaydigan jamiyat taraqqiyotga erisha olmaydi³⁷. Shu maqsadda mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri sifatida Mutolaa ilovasini alohida ta'kidlash mumkin. Mazkur ilova zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan bo'lib, unda minglab badiiy va ilmiy asarlar jamlangan. Bu esa yoshlarning istalgan joyda kitob o'qish imkoniyatini kengaytiradi. Elektron kutubxona shaklida faoliyat yuritayotgan ushbu platforma kitobxonlikni ommalashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Mutolaa ilovasidan faoydalanayotgan kishi eshitish orqali kitob haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi va elektron kitobni o'qishlari ham mumkin. Bugungi kunda yoshlar orasida kitob mutolaasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda zamonaviy yosh liderlarning ham hissasi katta. Xususan, Alisher Saydullayev yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha ko'plab tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda. U yoshlar bilan uchrashuvlarda kitob o'qishning ahamiyati haqida ko'plab fikrlar bildiradi. Uning ta'kidlashicha, yoshlarning bilimli bo'lishi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Shu sababli yoshlar

³⁷ Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent, 2021-yil.

orasida kitobxonlikni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni turli zararli g'oyalardan himoya qilish uchun kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish zarur. Kitob insonni tafakkurli, bilimli va ma'rifatli shaxs sifatida shakllantiradi. Shuningdek, kitob mutolaasi insonning nutq madaniyatini rivojlantiradi, uning fikrlash qobiliyatini oshiradi. Kitob o'qigan inson fikrini ravon ifoda eta oladi, tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bois bugungi kunda yoshlarni kitob o'qishga jalb qilish muhim vazifalardan biridir. Ta'lim muassasalarida kitobxonlikni targ'ib qilish, kutubxonalar faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy elektron kutubxonalarni yaratish bu boradagi muhim qadamlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kitobxonlik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Kitob inson tafakkurini boyitadi, ma'naviy dunyosini kengaytiradi va uni komil shaxs sifatida shakllantiradi. Bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati samarali natijalar bermoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan Mutolaa kabi platformalar yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Shuningdek, yosh liderlar, jumladan, Alisher Saydullayevning tashabbuslari ham yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda ham yoshlar o'rtasida kitob mutolaasini keng targ'ib qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish orqali jamiyatning ma'naviy salohiyatini yanada yuksaltirish mumkin. Shu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham biz yoshlarga berayotgan imkoniyatlari va ishonchlarini biz yoshlar doim kitobxonlik va yangi innovatsiyalarni o'ylab amalga oshirishga harakat qilmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, 2011.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
4. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, 2016.